

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SHARQ TARIXI,
SIYOSATI VA
HUQUQI
JURNALI**

**ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
ИСТОРИИ,
ПОЛИТИКИ
И ПРАВА**

**ORIENTAL
JOURNAL OF
HISTORY,
POLITICS
AND LAW**

**ISSN 2181-2780
2026**



**Google
Scholar**



Crossref



WORLDVIEW CLASSIFICATION

Bekhzodjon Avazjonovich Ruzaliev

International Islamic Academy of Uzbekistan

Faculty of Classical Oriental Philology

deputy dean for academic affairs

behzodjonruzaev@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: worldview, mythological worldview, religious worldview, philosophical worldview, theological, metaphysical, positivism.

Received: 19.03.26

Accepted: 20.03.26

Published: 21.03.26

Abstract: Worldview is a very broad concept, a system of views on the world and the place of man in it. It is a set of different views, values, and behaviors. No matter how complex or simple it may be in the consciousness of society and each individual, this is a worldview. It can belong to each individual and to society. Each era has its own worldview. Each part of a person's worldview is closely related to the others, they are all interconnected. The higher the intellectual, educational, and cultural level of a person or society, the stronger their worldview.

DUNYOQARASH TASNIFI

Bekhzodjon Avazjonovich Ro'zaliev

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti

o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

behzodjonruzaev@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, teologik, metafizik, pozitivizm.

Annotatsiy: Dunyoqarash juda keng tushuncha bo'lib, dunyo va undagi insonning o'rniga qarashlar tizimidir. Bu turli qarashlar, qadriyatlar va xatti-harakatlar to'plamidir. Jamiyat va har bir shaxs ongida qanday murakkab yoki oddiy vujudga kelmasin, bu dunyoqarashdir. U har bir shaxsga ham,

jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Har bir davrning o'ziga xos dunyoqarashi bor. Inson dunyoqarashining har bir qismi boshqalar bilan chambarchas bog'liq, ularning barchasi o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Shaxs yoki jamiyatning intellektual, bilim va madaniy darajasi qanchalik baland bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

КЛАССИФИКАЦИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Бехзоджон Авазжонович Рузалиев

Международная исламская академия Узбекистана

Факультет классической восточной филологии

заместитель декана по учебной работе

behzodjonruzaliev@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мировоззрение, мифологическое мировоззрение, религиозное мировоззрение, философское мировоззрение, теологическое, метафизическое, позитивизм.

Аннотация: Мировоззрение – очень широкое понятие, система взглядов на мир и место человека в нем. Это совокупность различных взглядов, ценностей и моделей поведения. Каким бы сложным или простым оно ни было в сознании общества и каждого отдельного человека, это мировоззрение. Оно может принадлежать каждому человеку и обществу. Каждой эпохе соответствует свое мировоззрение. Каждая часть мировоззрения человека тесно связана с другими, все они взаимосвязаны. Чем выше интеллектуальный, образовательный и культурный уровень человека или общества, тем сильнее их мировоззрение.

Kirish. Dunyoqarash deganda inson tasavvuri va hayoliga kela oladigan har bir savolga javobi bor qarash tushuniladi. Biroq, fikrning mukammal dunyoqarash hisoblanishi uchun uning har bir savolga javob berganligining o'zi etarli emas, balki bu javoblar tizimli va uyg'un, ziddiyatsiz, mantiqiy shaklda bo'lishi kerak. Bu uyg'unlik, agar ushbu qarash o'zi asoslangan tamoyillar bilan mezon qilish imkoniyati bo'lgandagina mumkin. Aks holda, barcha tushuntirishlarida o'zining asosiy tamoyillariga sodiq qolmagan fikr mukammal dunyoqarash bo'la olmaydi. Dunyoqarash inson va olam uchun savol tug'ilishi mumkin bo'lgan har qanday

masalani istisno qilmasligi va ularning barchasi haqida hukm va izoh, tushuntirishni ochib berishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har qanday savolga, shu jumladan kuzatilishi mumkin bo'lgan yoki kuzatilmaydigan olamlarga tegishli bo'lgan savolga javob berish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Diniy dunyoqarash tushunchasiga oid nazariy-metodologik masalalarni o'rganishda quyidagi adabiyotlarda keltirilgan fikr va mulohazalar tahlili amalga oshirildi: Myth and Reality. Курьони карим маъноларининг таржимаси ва тафсири. От Конфуция до Конта. Анри де Сен-Симон. Pozitif Felsefe Kursları. Sosyoloji Sözlüğü. Дух позитивной философии. Klasik sosyoloji tarihi. Law of Three Stages. Auguste Comte / Stanford University / Columbia Electronic Encyclopedia / Encyclopedia Britannica. Auguste Comte and Positivism. Gesammelte Schriften. Stanford Encyclopedia of Philosophy / Wilhelm Dilthey. Философия. Введение в философию. Фаннинг фалсафий масалалари. Основы философии.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada dunyoqarash va uning tasnifiga ma'lumotlar batafsil o'rganilib, tahlili amalga oshirildi. Ularga munosabat bildirildi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy mifologiya fanining asoschilaridan biri Maks Myuller 1856-yilda nashr etilgan "Qiyosiy mifologiya" asarida miflarni tushunish uchun filologik usuldan foydalanadi va so'z ortidagi ma'nolar tarixini yozishda miflardan foydalanish zarurligini aytadi. Miflarning pirovard natijada "mabda" (boshlanish, asos, negiz) hikoyasi, ya'ni kelib chiqish va paydo bo'lish hikoyasi ekanligi dunyoqarash tushunchasi bilan ajoyib parallellikni ko'rsatadi. Shuning uchun ruminiyalik, fransuz va amerikalik dinshunos olim, din tarixchisi va madaniyat faylasufi Mircha Eliade miflarni qadimgi jamiyatlarning dunyoqarashi [1] sifatida izohlaydi. Ushbu afsonalarda aytilgan hikoyalar nafaqat voqealarni tasvirlaydi, balki odamlarga xulq-atvor namunasini ham beradi. Ushbu hikoyalarga asoslanib, o'zlarining axloqiy xatti-harakatlarini koinot tuzilishi bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladigan odamlar kosmik tartib va ijtimoiy tuzum o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatadilar. Shuningdek, rasululloh (s.a.v.) Makka mushriklarini islomga chaqirganlarida ular "Bu (aytganlari) avvalgilardan qolgan afsonalardan boshqa narsa emas" [2], deganlari haqiqatga bo'lgan munosabatlarini bilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunimizda ham din va diniy qadriyatlarga nisbatan "eskicha" degan qarash mavjudligi diniy dunyoqarash masalasi muhim ahamiyat kasb etishining isboti.

Dunyoqarashlardagi farqlar ularni keng qamrovli qarash bilan tasniflashga olib keladi. Bu borada, har bir mutafakkir o'z davrining muammolaridan kelib chiqib har xil nuqtai nazardan turlicha tasniflarni ilgari surganliklarini ko'ramiz. Fransuz faylasufi, sotsiologi, mashhur ijtimoiy islohotchisi Sen-Simon tarixiy taraqqiyot muammolariga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Taraqqiyotning asosiy mezonini ilmiy bilimlar, axloq, din rivoji bo'lib, undan jamiyatning

farovonligi va baxtiyorligi kelib chiqadi, degan qarashni ilgari suradi. Shunga ko'ra, tarix, Sen-Simonning fikricha, o'zining quyi ijtimoiy shakllardan yuqori shakllarga o'tishida rivojlanishning uch bosqichini bosib o'tgan: 1) "teologik" (ibtidoiy butparastlikdan quldorlik asosidagi politeizmga); 2) feodal tuzumga olib kelgan xristianlik monoteizmiga asoslangan "metafizik"; 3) "ijobiy" – kelajakdagi ijtimoiy tuzum, unda yagona Xudo yagona jalb qilish qonuni bilan almashtiriladi va uning tashuvchilari – dunyoviy olimlar va "sanoatchilar" bilan ilmiy dunyoqarash paydo bo'ladi, [3, 4] deb ta'kidlaydi. Burjua inqilobidan norozi bo'lgan Sen-Simon o'z natijalarini ilmiy sotsiologik tizim yordamida "to'g'rilash" g'oyasini o'ylab topdi, u oqilona jamiyatni yaratish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, deb hisobladi.

Dunyoqarashlarning birinchi sistematik tasnifini fransuz sotsiologi va faylasufi Ogyust Kontda ko'ramiz. Sen-Simondan keyin Kont insoniyat intellektual evolyusiyasining "uch bosqich qonuni"ni (Loi des trois états) ishlab chiqdi. Inson tafakkurining butun rivojlanish va taraqqiyot yo'lini o'rganib chiqib, ma'lum bir katta qonun bor degan xulosaga keldi, unga ko'ra bizning har bir asosiy bilimimiz ketma-ket uch xil nazariy bosqichdan o'tadi [5]:

1. Teologik [antik davrdan (qadimdan) – 1300 yilgacha] (xayoliy, badiiy adabiyot holati) – inson tafakkurining rivojlanishi uchun zarur boshlang'ich nuqtasi; barcha hodisalar diniy g'oyalar va ishonch-e'tiqod asosida tushuntiriladi; g'ayritabiiylik hukmron bo'lib, tabiiy bo'lmagan va imkonsiz bo'lib tuyulgan hamma narsani tushuntirib asoslab beradi; diniy mafkuradan farq qiladigan va undan ajralib turadigan biror-bir mustaqil mafkura mavjud emas; dunyoqarashda dunyoviy va diniy uyg'unlashuv birlashtirib yagona tizimga solinadi; hayot zo'ravonlik, istilo va zabt etish ruhi bilan sug'orilgan [6], deya ta'riflagan.

Teologik bosqich uch qismga bo'lingan. Fetishizm – bu insoniyat Xudoning kuchini jonsiz narsaga joylashtirish falsafasidir. Har bir narsa Xudoning qudratini o'ziga olishi mumkin deb hisoblangan. Odamlar fetishizmga ishonib, ko'plab xudolarni yaratib olganliklari tufayli chalkashliklar giriftor bo'lishdi. Politeizm – bu ko'pxudolik falsafasi bo'lib, umuman olganda koinot ustidan hukmronlik qilib, uni boshqaradigan ko'plab xudolarga ishonishdir. Bu xudolarga qurbonliklar keltirish, ularga duo qilib ulardan yordan olish uchun bir guruh ruhoniylar tayinlangan. Xudolarning son-sanoqsizligi tufayli bu yana chalkashliklar paydo bo'ldi. Shuning uchun, sivilizatsiya monoteizmga qadam qo'ydi. Monoteizm – yakkaxudolik falsafasi bo'lib, bu olamning barcha jabhalarida hukmronlik qiluvchi yagona, qudratli Xudoga ishonishdir. Ham fetishizm, ham politeizmning hissiy va xayoliy tomonlarini olib tashlash va yo'q qilish intellektual uyg'unish bosqichiga olib chiqdi. Natijada, ilm-fan olamining kengayishi bilan bir qatorda ma'rifatning paydo bo'lishiga imkon berdi. Ma'rifatparvarlik davri bilan dunyoda katta

o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan ko'plab mashhur faylasuflar etishib chiqdi. Shuning uchun ham "yakkaxudolik tafakkurning teologik bosqichining eng yuqori cho'qqisidir" [7], deb ta'kidlagan.

Bu bosqich shaxslashtirilgan xudolarga murojaat qilishni anglatadi. Odamlar tabiatdagi barcha hodisalar ilohiy yoki g'ayritabiiy yaratilish, deb hisoblashgan. Kattayu kichik turli hodisalarning tabiiy sabablarini aniqlay olmadilar va shuning uchun ularni g'ayritabiiy yoki ilohiy kuchga bog'ladilar. Kont bu bosqichni uchta kichik bosqichga ajratdi. Ibodatxonachilik, ma'badchilik tafakkur va fikrlashning teologik o'lchovidagi birinchi bosqich edi. Bu davrda ibtidoiy odamlar animizm deb atalgan jonsiz narsalarning ichida ruh yashaydi, degan e'tiqodda bo'lishgan. Shuningdek, fetishizm e'tiqodi tarqalgan bo'lib, odamlar daraxtlar, toshlar, yog'och bo'lagi, vulqon otilishidan chiqqanlar va boshqalar kabi jonsiz narsalarga sig'inganlar. Ushbu amaliyot orqali odamlar hamma narsa g'ayritabiiy kelib chiqishga asoslanadi, deb ishonishgan. Asta sekin odamlar ongida ibodatxonachilik shubha uyg'ota boshladi. Natijada, odamlar ko'p xudolar yordamida narsalar tushuntirilgan politeizmga murojaat qilishdi. Ibtidoiy odamlar barcha tabiiy kuchlar turli xudolar tomonidan boshqariladi, deb ishonishgan. Masalan, suv xudosi, yomg'ir xudosi, havo xudosi, yer xudosi va boshqalar. Dunyoqarash o'zgarib, odamlar monoteizm davriga qadam qo'yishdi. Bunda yagona xudoga ishonish, hamma narsani yagona kuchga bog'lashgan. Ibtidoiy odamlar koinotning mavjudligi uchun yagona teistik mavjudot javobgar deb e'tiqod qilishgan.

2. Metafizik [1300-1800] (mavhumlik, mavhum holat) – teologik g'oyalari mavhum falsafiy va spekulativ tushunchalar, "xayoliy mavjudotlar (mohiyatlar)", uydurma va o'ylab topilgan "asl (ildiz) sabablar" – Aflotunning "g'oyalari", Aristotel va sxolastikaning "shakllari", "Ijtimoiy shartnoma", "Inson huquqlari", Spinozaning "substansiyasi (mohiyati)", Kantning "o'z-o'zidan narsa", Gegelning "mutlaq ruhi", materialistlarning "materiyasi" va boshqalar bilan almashtiriladi. Shuningdek, bu bosqichda altruizm, sotsializm, pozitiv falsafa, individualizm, liberalizm va demokratiya g'oyalari paydo bo'ladi va keng tarqaladi. Bu esa sanoat va ilm-fanning rivojlanishi bilan birga an'anaviy ishonch-e'tiqod, oldingi tartiblarning parchalanishiga va yo'q qilinishiga olib keladi. Bu bosqich islohot, ma'rifat va inqilobni o'z ichiga oladi [8], deya izohlagan. Bu teologik bosqich va ijobiy bosqich o'rtasidagi o'tish bosqichi bo'lganligi sababli, Kont uni uch bosqichdan eng muhimi va inson ongi teologik bosqichdan ijobiy bosqichga o'z-o'zidan sakrab o'ta olmasligi sababli zarur [9] deb hisobladi.

Metafizik bosqich – bu avvalgi bosqichning ozgina o'zgarishi, odamlar g'ayritabiiy kuchlarga emas, balki mavhum kuchlarga ishonishgan. Aql metafizik vositalarning bo'shligidan

kelib chiqadigan faktlarning o'zini payqashni boshlaydi, chunki "barcha aqlli odamlar ularni faqat ko'rib chiqilayotgan hodisalarning mavhum nomlari deb bilishgan" [10]. Aql tushunchalar bilan tanishadi, ko'proq izlashni va kuzatishni xohlaydi hamda ijobiy bosqichga o'tishga tayyor bo'ladi.

Metafizik bosqich teologik bosqichning davomchisi bo'lib, barcha narsalar shaxssiz, mavhum tushunchalar bilan tushuntirilgan. Odamlar ko'pincha Xudoni mavhum mavjudot sifatida belgilashga harakat qilishgan. Ular mavhum kuch dunyodagi voqealarni boshqaradi, deb ishonganlar. Metafizik tafakkur Xudo haqidagi konkret tushunchani rad etadi.

3. Ilmiy [XIX asr] (ijobiy, pozitiv holat) – bu bosqichda ilmiy bilimlar hukmronlik qiladi, sotsiologiya vujudga keladi va ijtimoiy tizimlarning ishlash qonuniyatlari o'rganila boshlaydi; pozitiv (ijobiy) falsafa asosida jamiyat yangicha tarzda qayta tashkil etiladi; bu bosqichda aql (ong) barcha jarayonlarni mavhumlik va mavhum tamoyillar yordamida tushuntirishdan bosh tortadi hamda kuzatuvlar va mulohazalar yordamida hodisalar o'rtasida bog'lanish, aloqa o'rnatishga intiladi, "ketma-ketlik va o'xshashlikning o'zgarmas aloqalarini, munosabatlarini" topadi; tajovuzkorlik jamiyatni tark etadi; aristokratlar va anarxistlar o'rniga sotsiokratlar keladi [11], deya tushuntirgan.

Kontning "Uch bosqich qonuni" deb atagan bu nazariya G'arb dunyosida muhim ahamiyatga ega bo'lib, deyarli barcha olimlar o'z nuqtai nazarlarini shu prizma orqali ifodalab asoslashga intilganlarini ko'rishimiz mumkin. Asrimiz boshlarida fransuz sotsiologiya maktabi a'zolari Emil Dyurkgeym va uning do'stlari, Lyusen Levi-Bryul, Britaniya antropologiya maktabi a'zolari Djeyms Frezer, Edvard Taylor va boshqalar bilan boshlangan dunyoqarash haqidagi fikr-mulohazalar hozirgi kunimizga qadar davom etmoqda.

Nemis madaniyat tarixchisi va idealist faylasufi, hayot falsafasi vakili, adabiyotshunos olim Vilgelm Dilthey dunyoqarashni. [12] quyidagicha tasnifladi.

Naturalizm. U epistemologiya sifatida sensualizmni va metafizika sifatida materializmni afzal ko'radi. O'zining asosiy kayfiyati va ehtirosida diniy va ruhiy metafizikaga qarshi kurash olib boradi.

Erkinlik idealizmi. Erkinlik idealizmi (deterministik) materializmga va uning ruh erkinligi va qadriyatlarini inkor etishiga qarshi kurash sifatida shakllanadi. Erkin harakat qiluvchi inson asosida ongni tabiatning mexanik qonunlaridan mustaqil deb hisoblaydigan tizim shakllanadi. Vakillar qatoriga Kant va Shiller kiradi.

Ob'ektiv idealizm. U avvalgi ikkitasidan butunlay farq qiladi, chunki u butun dunyoning universal uyg'unligini ta'kidlaydi. Butunning umumiy ko'rinishi bu butun alohida qismlarga

qanday makon va ma'no berishini ko'rsatadi. Bu dunyoqarashning vakillari Gyote, Gegel va stoiklardir.

Uch asosiy tur faqat tarixiy taqqoslash orqali aniqlanadi. Dilthey uchun muhim bo'lgan narsa qat'iy tasnif emas, balki jarayon sifatida tushunish edi. Keyinchalik ular yana bir turni – naturalistik-pozitivistik dunyoqarashni qo'shdilar [13]. Har bir dunyoqarash bir xil tamoyillar asosida shakllanadi va shuning uchun ham barcha dunyoqarashlar umumiy tuzilishga ega. Har bir dunyoqarashning boshlang'ich nuqtasi dunyoqarashdir. Bu dunyoga bo'lgan munosabatida dunyo qiyofasini shakllantiradigan insonning fundamental va elementar bilimlaridan kelib chiqadi. Ma'noning birinchi keng qamrovli tuzilmalari odamlar o'z muhitida tan olgan narsalarni tartibga sola boshlaganlarida va ularni hayotlari uchun foydaliligiga qarab baholay boshlaganlarida paydo bo'ladi. Bular keyinchalik mavhum bo'lib, uning dunyoqarashiga ko'tariladi. Bu eng yuqori qadriyatlar va tamoyillarni belgilaydi. Masalan, yaxshilik va ezgulikni olsak, unga nisbatan hayot va harakat ideali yaratiladi. Bu jarayon bir necha avlodlar davomida davom etishi mumkinligi sababli, dunyoqarash tarix mahsulidir, degan xulosaga kelgan.

Dunyoqarashning tarixiy tipologiyasida uch turi mavjud. Bular mifologik, diniy va falsafiy. Ilmiy asarlarda shu uch turi haqida so'z yuritiladi va uqtiriladi [14].

Mifologik dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki bosqichi, dunyoni anglash usuli, ijtimoiy fikrlash shaklidir. Miflar ibtidoiy tafakkurdan kelib chiqadi. Ular qadimgi davrlarda xalqlarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynagan [15]. Miflar orqali turli xalqlarning ma'naviyati va madaniyati shakllangan, qadriyatlar tizimi vujudga kelgan. Ular san'at, she'riyat va musiqa rivojida katta rol o'ynagan.

Diniy tafakkur odamlarning dunyoqarashini ham shakllantiradi. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati butun borliqning "yer" va "samoviy" tekisliklarga bo'linishidir. Bu yerda "jannat"ning roli kattaroq. Barcha dinlarning negizida bitta Xudoga yoki ko'p xudolarga va boshqa kuchlarga ishonish yotadi. Ular inson va butun borliq ishlariga aralashadilar, ularni boshqaradilar, qonunlar chiqaradilar [16]. Diniy dunyoqarashga ega insonning butun hayoti, fikr-mulohazalari, xatti-harakatlari ishonch-e'tiqoddan kelib chiqadi.

Diniy dunyoqarash – bu dunyoni Xudo yaratgan degan g'oyaga asoslanadi. Insonning dunyoqarashi va dunyoni sezishi, shuningdek uning xulq-atvori va hatti-harakatlari olamni yaratgan, odamlar moddiy hamda ma'naviy hayotining barcha jabhalarini ierarxiya bosqichli ko'rinishida tartibga solgan yagona va qudratli Xudoning mavjudligiga bo'lgan qat'iy ishonchga [17] asoslanadi.

Falsafiy dunyoqarash mifologik va diniydan farqli ravishda ko‘proq tafakkur, aqliy faoliyat va tahlilga tayanadigan qarashlar tizimidir. Falsafiy dunyoqarash xayol, orzu va xurofotlarni bostirib, haqiqiy kuzatish va mantiqiy tahlilga asoslanadi. U hatto xalq orasida tarqalgan afsonalarga ham yangicha oqilona va o‘ylangan ko‘rinish beradi, o‘rnatilgan an‘analarga yangicha jon bag‘ishlaydi [18]. Maqsad – hamma narsaning ildiziga kirish va uni qanday bo‘lsa, shunday tushunishdir.

Xulosa. Diniy dunyoqarash – bu inson va dunyo haqidagi mavjud diniy qarashlar, diniy nuqtai-nazarlar, diniy fikrlar, diniy prinsiplar, diniy qonun-qoidalar tizimidan kelib chiqqan diniy baholar va ishonch-e‘tiqodlar bo‘lib, ularga asoslanib shakllangan diniy faoliyat dasturidan iboratdir. U o‘rab turgan butun borliq, voqelik, mavjudot, atrof-muhit bilan insonning munosabat va muomilasini aniqlashida hamda olamni umumiy tarzda bir butun holda his etishda diniy ta‘limotlarga suyangan holda uni dunyogagi o‘rnini belgilab olishida yordam beradi. Diniy dunyoqarashning o‘ziga xos xarakterli jihatlari quyidagilardan iborat: Aqidalar, ta‘limotlar, ibodatlar, marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma‘lum jamoa-guruhlar, tashkilotlar, insonlararo munosabatlarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Myth and Reality. Harper & Row. – New York, 1968. –S. 8.
2. Курьони карим маъноларининг таржимаси ва тафсири / Абдулазиз Мансур. – Т., 2018. (Qarang: An‘om 25, Anfol 31, Nahl 24, Mu‘minun 83, Furqon 5, Naml 68, Ahqof 17, Qalam 15, Muttaffifun 13.)
3. Гринин Л.Е. От Конфуция до Конта. – М.: Урсс, 2012. –С. 168-170.
4. Застенкер Н.Е. Анри де Сен-Симон. – М., 1962. –С. 208-227
5. Comte A. Pozitif Felsefe Kursları. – İstanbul, 2001. –S. 32-34.
6. Конт О. Дух позитивной философии. 2003. –С. 55-64.
7. Rashmi P. Law of Three Stages: The Corner Stone of Auguste Comte’s.
8. Конт О. Дух позитивной философии. 2003. –С. 64-71.
9. Bourdeau M. Auguste Comte. Stanford University.
10. Auguste Comte. Columbia Electronic Encyclopedia.
11. Конт О. Дух позитивной философии. 2003. –С. 72-84.
12. Wilhelm Dilthey. Gesammelte Schriften. VIII. 1960. –S. 100-118.
13. Stanford Encyclopedia of Philosophy. Wilhelm Dilthey.
14. Философия. Чумакова А.Н. – М.: ИНФРА-М, 2018. –С. 11-15.
15. Введение в философию. Фролов И.Т. – М., 2003. –С. 13-15.

16. Философия. Кирилова В.И. – М.: Юристъ, 1999. –С. 7-12.
17. Фаннинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2007. –Б. 9.
18. Баранец Н.Г. Основы философии. – Ульяновск, 2010. –С. 4-10.